

**SUMMARY.** The article discusses the issues of studying the poetic language in Karakalpak literary studies. Author I. The artistic lexicon of Yusupov's works interprets antonyms, synonyms, homonyms and phraseology. The improved forms of the poet's language, the use of examples of artistic vocabulary, and the richness, artistry, and deep imagery of the poetic language are revealed.

## YOZUVNING TARAQQIYOT BOSQICHLARI

**Rajapbaev Batir Bekimbetovich** – *assistent o'qituvchi*  
*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali*  
**O'razalieva Dildora Islomovna** – *o'qituvchisi*  
*Nukus shahar 36-sonli umumta'lim maktabi*

**Tayanch so'zlar:** arxeolog, gnoseologik, piktografik, moyqalam, bitik, grafika, jamiyat, sahifa.

**Ключевые слово:** археолог, гносеологический, пиктографический, кисть, надпись, графика, общество, кость, страница.

**Key words:** archaeologist, epistemological, pictographic, brush, inscription, graphics, society, bone, page.

Insoniyat paydo bo'libdiki, o'z fikrini bayon etishga, muloqot qilishga bo'lgan ishtiyoq ila yashaydi. Til bir aloqa vositasi sifatida shakllanib, so'ngra uni yozishga, yozuv shakllanishiga bo'lgan harakatlar tarixdan ma'lum. Yozuv paydo bo'lganidan beri bizga misli ko'rilmagan imkoniyatlarni ochib bergan. Uni taraqqiyotning kashfiyotchisi desak ham bo'ladi. Negaki, agar bizda yozuv bo'lmaganda edi, ajdodlarimiz yaratgan meroslari bizgacha yetib kelmagan va biz ulardan foydalana olmagan bo'lardik. Yozuv insoniyat hayotida juda katta rol o'ynaydi. Dunyoning har qanday burchagida, har qanday sohada bo'lsin, yozuv doimo foydalanilib kelmoqda. Yozuv axborot almashinuv jarayonida ham o'zining beqiyos hissasini ko'rsatmoqda.

Tarix sahifalaridan bizga ma'lumki, yozuv tildan ancha keyin paydo bo'lgan ([tovush](#) tili 400-500 [ming](#) yillar ilgari yuzaga kelgan, yozuvning paydo bo'lganiga esa 4-5 ming yillar bo'lgan). Og'zaki [til](#) ([nutq](#))ning [zamon](#) ([vaqt](#)) va [makon](#) ([masofa](#)) nuqtai nazaridan cheklanganligi va uni bartaraf etish zaruriyati yozuvning paydo bo'lishiga olib kelgan. Og'zaki til talaffuz vaqtidagina va ayni paytda muayyan masofadagi (tovush to'lqinlari etib borishi mumkin bo'lgan) kishi uchungina mavjuddir. Boshqa sharoitlarda tilga ehtiyoj paydo bo'lishi bilan inson dahosi bu ehtiyojni qondira oluvchi vositalarni qidira boshlagan, natijada belgilar tizimidan iborat yozuv dunyoga kelgan. Yozuvning paydo bo'lishi va taraqqiyoti [jamiyat](#) rivoji, shuningdek, muayyan masofadagi kishilarning o'zaro [aloqa](#) qilish ehtiyoji, siyosiy, huquqiy, diniy va estetik xarakterdagi axborotlarni qayd etish, saqlash zaruriyati bilan bevosita bog'liq. Xalqlarning [davlat](#) sifatida birlashuvi nutqiy aloqa doirasini kengaytiradi va

murakkablashtiradi; boshqa xalqlar va davlatlar bilan [savdo](#) harbiy, siyosiy va boshqa shart-nomalar tuziladi; qonunlar paydo bo'ladi va mustahkamlanadi; diniy qarashlar va mafkuraning boshqa turli ko'rinishlari shakllanadi; xalqlarning o'z tarixini bilishga bo'lgan ehtiyoji kuchayadi. Bularning barchasini faqat [og'zaki nutq](#) vositasida amalga oshirish mumkin emas. Bu sharoitda yozuv zaruriyatga aylanadi. Yozuv og'zaki tilga nisbatan ikkilamchi, [qo'shimcha](#) aloqa vositasi bo'lsada, unga qaraganda ko'p afzalliklarga ega. Xususan, tilning asosiy vazifasi – kishilar o'rtasidagi aloqani ta'minlashdir. Tilning kommunikativ vazifasi yozuvsiz amalga oshishi mumkin emas. Tilning estetik, gnoseologik (dunyoni bilish) kabi asosiy vazifalarini ham yozuvsiz [tasavvur](#) qilish qiyin. Ayniqsa, tilning insoniyat qo'lga kiritgan tajriba bilimlarni saqlash va avlodlarga etkazishdan iborat vazifasi bevosita yozuv orqali bajariladi. Kishilik jamiyati yaratgan [bilim](#) va tajribalar, kashfiyotlar, [so'z](#) san'ati durdonalari va boshqa qimmatli axborotlarning barcha-barchasi avlodlardan avlodlarga yozuv orqali etib boradi. Til jamiyat tarixi bilan qanchalik bog'liq bo'lsa, yozuv ham shunchalik bog'liqdir. Yozuv kishilik jamiyatining zaruriy ehtiyoji asosida paydo bo'lib, rivojlanib borgan.

Masalan, rasm bilan yozuv o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud, avvalo, har ikkalasi ham [ko'rish](#) orqali [idrok](#) qilinadi. Piktografik yozuvni ibtidoiy [tasviriy san'at](#) ichida yuzaga kelgan deyish mumkin. Arxeolog olimlarning bundan juda ko'p ming yilliklar ilgari insonlar jildonidan chizilgan turli rasmlarning mavjudligi haqidagi ma'lumotlari ma'lum. Toshlariga, suyaklariga, [g'or](#) devorlariga o'yib ishlangan xilma-xil hayvonlarning rasmlari, umumiy mazmunga birlashuvchi tasviriy lavhalar – bularning [bari](#) pik-

tografik yozuvning asoslaridir. Ana shu ibtidoiy tasviriy [san'at](#) ikki yo'nalishda – umuman rasmlar va muayyan axborot vositasi, ya'ni yozuv sifatida shakllana borgan. Buni dunyo tillarining juda ko'pchiligidagi «yozmoq» ma'nosidagi so'zlarning etimologiyasiga e'tibor qilganda ham bilish mumkin. Bunday so'zlarning etimologiyasida asosiy mazmun rasm chizish jarayoni bilan bog'lashda [namoyon](#) bo'ladi. Masalan, qadimgi turkiy tillarda «yozmoq», tushunchasi «bitmoq» fe'li («bitik» – yozuv, [kitob](#)) bilan ifodalangan. Bu fe'lining o'zagi xitoycha «bi» ([mo'yqalam](#)) so'zi bilan aloqador bo'lib, dastlabki ma'nosi «o'ymoq, o'yib bezamoq», undan keyin «yozmoq» demakdir. Slavyan tillardagi «pisati» (rus. «pisat» – «yozmoq») fe'lining ma'nosi ham dastlab mo'yqalamda rasm chizish bilan bog'liq bo'lgan (rus. «jivopis» – rangtasvir so'zi bilan qiyoslang). Bu fe'lining o'zagi [lot](#). «pingere» (rasm solmoq) so'zi bilan aloqadordir, «pisati» fe'lining dastlabki ma'nosi, ko'rinadiki, «rasm solmoq», «bezamoq»dan iborat bo'lgan. Yunon tilidan ko'pgina tillarga o'tgan «grafika» so'zi ham etimologik jihatdan o'yish, tirnash tushunchalarini ifodalaydi. Bu misollar yozuvning rasm bilan benihoya bog'liq ekanligini yaqqol ko'rsatadi, yozuv jarayoni mexanikasini ham ochib beradi. Rasmlar yordamida muayyan fikr axborotni ifodalash, yuborish mumkin ekanligini odamlar juda qadimgi davrlarda anglab etganlar. Shuning uchun ham rasmlar yozuv (piktografiya) dunyodagi mavjud barcha yozuvlarning kelib chiqishi uchun [asos](#) bo'lgan deyish mumkin. Piktografiyaning og'zaki til bilan bog'liq bo'lmaganligi uning turli til vakillari jildonidan ham tushunilaverishini ta'minlagan, ammo unda ifodalangan mazmunning turlicha, ixti-yoriy [talqin](#) etilishiga yo'l qo'ygan, abstrakt tushunchalarni bunday yozuv orqali ifodalash deyarli mumkin bo'lmagan. Davlat tuzumi rivojlanib, turli yozishmalarga va bu yozishmalarning ayni bir xil talqin qilinishiga bo'lgan extiyoj kuchayib brogan [sari](#) piktografik yozuvning ojiz jildonlari ko'proq ko'zga tashlana boshlagan. Bu [hol](#) piktografik yozuvning taraqqiyotiga, ideografik va ieroglifik yozuvning shakllanishiga olib kelgan. Rasmlarning soddalashuvi, ularning o'zlari ifoda etgan buyumlarning nomiga, ramziga aylanishi va asta sekin bu ramzlarning og'zaki til bilan doimiy bog'lanishi yozuvning takomillashib borishini belgilab beradi. ozuv belgilari ideografik, ieroglifik belgilar sifatida muayyan so'zlarning ifodachilariga aylanadi, bu yozuv «so'z yozuvi» yoki «logografik yozuv» nomi bilan umumlashtiriladi. Eng qadimgi logografik yozuv tizimlari [misr](#) ieroglifikasi, [shumer](#) mixxatlari,

[xitoy](#) ieroglifikasi va b.) miloddan avvalgi 4 ming yillikning oxiridan miloddan avvalgi 2 ming yilliklarning boshlarigacha bo'lgan davrda shakllangan. Haqiqiy ma'nodagi yozuv tizimlari dastlab qadimgi Sharqda vujudga kelgan. Yozuvning keyingi taraqqiyot bosqichi [bo'g'in](#) yozuvi bo'lib, u miloddan avvalgi 2 ming yilliklarning o'rtalarida paydo bo'lgan. Tildagi so'zlar soniga qaraganda bo'g'inlar soni ancha kam, shuning uchun ham bo'g'in yozuvi logografik yozuvga nisbatan sezilarli darajada o'z belgilar tizimi bilan ish ko'radi. Masalan, [devanagari](#) (xind) yozuv bo'g'in yozuvidir. Harf-tovush yozuvining shakllanishi butun yozuv taraqqiyoti tarixida [inqilob](#) bo'lgan. Bu yo'nalishdagi ilk yozuv finikiy yozuvidir. Finikiy alifbosining paydo bo'lishi insoniyat uchun yozuvni takomillashtirish borasida olg'a qo'yilgan qadam bo'lgan. Birinchi marta sof tovush yozuvi, sanoqli harflardan iborat mukammal alifboning yuzaga kelishi jamiyatdagi yozuvni biladigan kishilar doirasini kengaytirib yuborgan. Shuning uchun ham [finikiy yozuvi](#) juda [tezlik](#) bilan boshqa xalqlar orasida ham tarqalgan. Bu [jarayon](#) miloddan avvalgi 9 asrdan boshlangan. Finikiyaliklar bilan iqtisodiy va madaniy aloqada bo'lgan qo'shni xalqlar mazkur yozuv bilan tanishib, tez orada uni o'z tillariga moslashtirib olganlar. Hozirgi kunda bizga ma'lum bo'lgan harf-tovush tizimidagi yozuv-larning 5/4 qismidan ko'prog'i finikiy yozuvidan kelib chiqqan. Nutqni eng kichik bo'laklarga – tovushlarga ajratib tasavvur qilish, idrok etish dastlabki paytlarda u qadar oson ish bo'lmaganligi sababli xarf-tovush yozuvi yoki alifboli yozuvning paydo bo'lishi jarayoni uzoq davom etdi. Bunda inson dastlab nutqni so'zlarga, keyin bo'g'inlarga, undan keyin esa tovushlarga ajratib tasavvur qila olishday behad murakkab va uzoq yo'lni bosib o'tgan. Tildagi tovushlarni alohida-alohida idrok qilish tovush yozuvning ibtidosidir. Harf-tovush yozuvning muhim afzalligi uning [kam](#) miqdordagi, ya'ni 20 – 30 atrofidagi belgilar bilangina ish [ko'ra](#) olishidir. Harf-tovush yozuvi dunyo xalqlari orasida juda tez tarqalgan va bu jarayon, asosan, o'zlashtirish, u yoki bu tilning xususiyatini hisobga olgan holda moslashtirish yuli bilan bo'lgan. O'rta Osiyodagi xalqlar, jumladan, o'zbek xalqi turli yozuvlardan foydalanib kelgan. Bu yozuvlar avesto, paxlaviy, urxun-enisey (runik), turkey ([uyg'ur](#)), so'g'd, arab, kirill, lotin yozuvlaridir.

Ko'pchilik xalqlar o'z yozuvlarini boshqa til yozuvini o'z tillariga imkoniyat darajasida moslashtirish yo'li bilan yaratganlar. Bu hol yozuv va til munosabatlarida o'z izini qoldirgan. Ayni paytda yozuv va tilning taraqqiyoti bir xil,

bir-biri bilan to‘la mos keladigan jarayon emas. Tilning taraqqiyoti tarixiy va uzluksiz jarayon, odamlar tilga ataylab, ongli ravishda biron-bir o‘zgartirish kiritmaydilar. Tildagi u yoki bu o‘zgarish tadrijiy ravishda, asta-sekin yuz beradi. Yozuv haqida esa bunday deb bo‘lmaydi. Odamlar til xususiyatlariga yanada moslashtirish uchun yozuvga turli o‘zgartirishlar kiritadilar, islohotlar qiladilar, bir yozuv tizimini boshqasi bilan almashtiradilar va h. k. Masalan, o‘zbek xalqi asrlar davomida arab alifbosidan foydalanib kelgan, 1923-1926 yillarda bu yozuvni o‘zbek tili tovush qurilishini to‘laroq ifodalashga moslashtirish maqsadida bir qator harfiy o‘zgartirishlar kiritilgan. O‘zbekistonda 1929 yildan lotin yozuvi asosidagi o‘zbek alifbosiga o‘tilgan, 1940 yildan esa kirill yozuvi joriy etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi 1993 yil 2 sentyabrda «Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida»gi qonunni qabul qildi. Bu qonunga va uni amalga kiritish tartibi haqidagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy

Kengashi qaroriga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1995 yil 6 mayda o‘zgarishlar kiritadigan qonun qabul qildi. Bu hujjatga ko‘ra lotin yozuviga asoslangan yangi o‘zbek alifbosi 26 ta harf va 3 ta harflar qo‘shilmasidan iborat. Yangi alifboga to‘la o‘tish 1996 yildan boshlanib, 2005 yilda tugallanishi belgilangan. Yozuv taraqqiyoti tilning tabiiy taraqqiyotidan ancha orqada yurganligi uchun muayyan so‘z yoki so‘z shaklining yozilishi bilan talaffuzi aynan mos kelavermaydi. Bu tabiiy va qonuniy hol bo‘lib, yozuv va og‘zaki nutq o‘rtasidagi bunday nomuvofiqliklarni imlo qoidalari tartibga solib turadi. Dunyodagi alifbolarning hammasida ham harflar soni tegishli tildagi tovushlar (fonemalar) sonidan sezilarli darajada kam. Tabiiyki, bu hol yozuvni o‘zlashtirishni osonlashtiradi. Shuning uchun ham alifbolardagi asosiy tamoyil undagi harflar sonini ko‘paytirish emas. Alifbo yozuvning asosini tashkil etadi. Tinish belgilari va boshqa yozma belgilar ham yozuvning unsurlari hisoblanadi.

#### Adabiyotlar

1. Fridrix I., Istoriya pisma, M., 1979;
2. Gelb I. E., Opit izucheniya pisma. Osnovi grammatologii, M., 1982;
3. Istrin V. A., Voznikovenie i razvitie pisma, M., 1965;
4. Maxmudov N., Yozuv tarixidan qisqacha lug‘at ma‘lumotnoma, T., 1990.
5. Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish. Toshkent 2007.
6. Prof. Karimov S.A “Tilshunoslik nazariyasi” Samarqand 2012.
7. M.T. Irisqulov. “Tilshunoslikka kirish”. Toshkent. “Yangi asr avlodi” 2009.

**PEZIOME.** Bu maqolada yozuvning paydo bo‘lishi va taraqqiyoti jamiyat rivoji, shuningdek, muayyan masofadagi kishilarning o‘zaro aloqa qilish ehtiyoji, siyosiy, huquqiy, diniy va estetik xarakterdagi axborotlarni qayd etishi va O‘rta Osiyodagi xalqlar turli yozuvlardan foydalanib kelganligi haqida so‘z boradi.

**PEZIOME.** В данной статье В этой статье рассматриваются возникновение и развитие письменности, развитие общества, а также потребность людей на расстоянии друг от друга общаться, фиксировать информацию политического, правового, религиозного и эстетического характера, а также то, как народы Центральной Азии использовали различные виды письменности.

**SUMMARY.** In this article, the emergence and development of writing, the development of society, as well as the need for people to communicate at a distance from each other, to record information of a political, legal, religious and aesthetic nature, as well as how the peoples of Central Asia used different types of writing.